

HANAFIY FIQHIGA OID MANBALARDA ISLOM IQTISODI ASOSLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20852532>

Аманов Хошимжон Ботирович

*Тошкент ислом институти “Ақоид ва фикҳий фанлар
 кафедраси” катта ўқитувчиси*

Iqtisodiyot nazariyasi iqtisodiy jarayonlar va hodisalarni kategoriyalarga ajratib o'rgananidek, islom iqtisodiyoti xam iqtisodiy voqe'likni muayyan iqtisodiy faoliyat turlariga bo'lib o'rganadi. Shunday faoliyat turlaridan biri bu moliya sohasiga oid bo'lgan faoliyatlar va munosabatlardir. Islom iqtisodiyotida moliyaviy munosabatlar ham xuddi islom iqtisodiyoti nazariyasi asoslangan tamal asoslarga tayangan holda barcha moliyaviy munosabatlarni shariat ahkomlari va halol-harom kategoriyasi asosida baholaydi. Islom iqtisodiyotidagi moliya tizimi va moliyaviy munosabatlarning asosiy jihati shundan iboratki, bunda har qanday moliyaviy munosabat islomiy ko'rsatmalar doirasida bo'lishi talab etiladi. An'anaviy iqtisodiyotda amalga oshiriladigan moliyaviy munosabatlar islom iqtisodiyoti qonuniyatlariga mos kelmasa, ularga muqobil variantlar ham ishlab chiqilgan.

Islom iqtisodiyotida jarayonlar Qur'oni karim, Hadisi Sharif, Ijmo va Qiyos hamda boshqa dalillar asosida bahs qilinadi. Jumladan, Qur'oni karimda 200 dan ortiq oyatlarda iqtisodiy masalalar yoritiladi¹³¹.

Fuqaholar ushbu mavzuda kelgan oyat va hadislarda chiqadigan hukmlarni tartibga solib, ijthod darajasiga yetmagan musulmonlar uchun ularga yordam tariqasida osonlashtirib, tushuntirib berishgan.

Qur'oni karimning «Yusuf» surasi 43-oyatida Yusuf (a.s.) qissasi orqali insonlarda kapital qo'yish va uni jamg'arishga eqtiyoj bo'lganligi bayon qilinadi: «Shoh dedi: «Men tushimda yettita ozg'in sigir yettita semiz sigirni yeyotganini va yettita yashil boshqoq bilan birga boshqa (ettita) qurigan boshqoqlarni ko'rdim. Ey, a'yonlar! Agar tush ta'birini aytguvchi bo'lsangiz, tushim to'g'risida fatvo (javob) beringiz». Bu tush ta'birida Yusuf (a.s.): «Odatlaring bo'yicha yetti yil ziroat qilaveringiz. Olgan hosilingizni (omborda) boshog'i bilan qoldiringiz. Faqat ozgina o'zlaringiz yeydiganini (yanchib olingiz). So'ngra, undan keyin qattiq yetti (yil) keladi va shu (qaxatchilik yil) lar uchun g'amlab qo'ygan zaxirangizni yeb ketadi. Faqat ozgina asrab qo'yganingizdan (qolur). So'ngra, undan keyin bir yil kelib,

131 Dunyo Ahmad Shavqiy. Nazorat iqtisodiyoti fi al-Qur'on al- karim. – Makka: Maktaba Malik Fahd, 2007. – B. 68.

odamlar unda yomg'irga serob bulurlar va unda (mevalardan) sharbat olurlar»» (Yusuf, 47-49)¹³².

Jumladan, savdo-sotiq masalasi insonlarning kundalik hayot faoliyatida ko'p uchrashi va muhim ahamiyatga ega ekanligi, shuningdek, gohida ziddiyatli holatlarga sabab bo'lganligi bois, savdoga oid bir qator Qur'oni karim oyatlari nozil bo'lgan. Bular ichida eng asosiysi "Baqara" surasining 275 oyatidir:

{ وَأَحَلَّ اللَّهُ الْبَيْعَ وَحَرَّمَ الرِّبَا }

"...Alloh savdoni halol va riboni harom qilgan"¹³³

Savdo bilan bog'liq operatsiya turlaridan biri Salam savdosi hisoblanadi, ushbu savdo turida oldindan pul (avans tarzda) berilib, mahsulot keyin yetkazib beriladi. Ushbu savdo turiga Qur'oni karimdan ham dalil sifatida "Baqara" surasi keltiriladi. Unda o'zaro pul oldi-berdosi doim yozib qo'yilishi lozimligi ta'kidlanadi:

{ يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا إِذَا تَدَايَنْتُمْ بِدِينٍ إِلَىٰ أَجَلٍ مُّسَمًّى فَاكْتُبُوهُ }

"Ey, imon keltirganlar, qachon ma'lum muddatga qarz oldi berdi qilsangiz, uni yozing", degan. Baqara (282 oyat)¹³⁴

Savdo va shunga o'xshash iqtisodiy faoliyatlarda insonlar o'rtasida o'zaro sherikchilik asosida ish yuritish alohida o'rin tutadi. Bo'sh turgan pul mablag' egasi va tadbirkorning o'zaro birlashib, ma'lum bir faoliyat turini amalga oshirishi Mudoraba sherikchiligiga asoslanishi mumkin. Mudorabada ra'sulmol bir tomondan, xizmat ikkinchi tomondan bo'ladi. Molning egasi ishchi bilan kelishib, molni unga beradi. Tushgan foyda kelishuvga asosan bo'lib olinadi. Zarar mol egasiga bo'ladi. Ishchi esa, qilgan mehnatidan zarar ko'radi, xolos.¹³⁵ Mudorabaning joizligiga Qur'oni karimdan quyidagi oyatlarni dalil sifatida keltirish mumkin:

"Robbingizdan fazl istashingizda sizga gunoh yo'q" (Baqara, 198)¹³⁶.

"Bas, namoz tugagandan so'ng yer yuz bo'ylab tarqaling va Allohning fazlidan talab qiling va Allohni ko'p eslang, shoyadki, yutuqqa erishsangiz" (Jumu'a, 10)¹³⁷.

Shuningdek, mudoraba faoliyatiga dalil sifatida "Baqara" surasining 198-oyati va "Muzammil" surasining 20-oyati karimasi keltiriladi.

Sherikchilikning keyingi turi mushoraka bo'lib, birdan ortiq insonlarning bir faoliyat turi doirasida mablag'ining birlashuvi asosida amalga oshiriladi. Mushoraka sherikchilik munosabatiga Qur'oni karimdan «Albatta, Alloh sizlarga

132 Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri // A.Mansur tarjimasi. – T. : TIU, 2004. – B. 388.

133 Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri // A.Mansur tarjimasi. – T. : TIU, 2004. – B. 388.

134 Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri // A.Mansur tarjimasi. – T. : TIU, 2004. – B. 388.

135 Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Kifoya. – Toshkent: Sharq, 2011. – J. 3. – B. 268.

136 Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri // A.Mansur tarjimasi. – T. : TIU, 2004. – B. 388.

137 Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri // A.Mansur tarjimasi. – T. : TIU, 2004. – B. 388.

omonatlarni o'z ahliga erishtirishni va agar odamlar orasida hukm qilsangiz, adolat ila hukm qilishni amr qiladi (Niso, 58) oyati dalil sifatida keltiriladi.

Islom iqtisodiyotida turli xil moliyaviy munosabatlarni amalga oshirishda shartnomaning oxirigacha bajarilishida kafolat nuqtai nazardan garov talab qilib odatiy holga aylangan. Garovning shariatga kiritilishiga Qur'on, Sunnat va Ijmo'dan dalillar bor. Alloh taolo "Baqara" surasi, 283-oyatida shunday deb marhamat qiladi¹³⁸:

﴿وَإِنْ كُنْتُمْ عَلَىٰ سَفَرٍ وَلَمْ تَجِدُوا كَاتِبًا فَرِهَانَ مِفْهُوسَةً﴾

"Agar safarda bo'lsangiz vayo'zuvchi topa olmasangiz, bas, qo'lga olinadigan garov bo'lsin".

Garov bilan bir qatorda kafolatning shar'iyiligiga dalil qilib quyidagi oyati karima keltiriladi. «Biz (bu) omonatni (chin bandalik omonatini) osmonlarga, Yerga va tog'larga taklif etdik, ular uni ko'tarishdan bosh tortdilar va undan qo'rqdilar. Inson esa uni o'z zimasi qildi. Darhaqiqat, u (o'ziga) zulm qiluvchi va nodondir». (Ahzob, 72)¹³⁹.

Iqtisodiy faoliyatlar orasida ijara munosabatlari ham alohida o'rin egallaydi. U foyda olishning bir usuli sifatida e'tirof etiladi. Qur'oni karimning Taloq surasi 6-oyati va Qasos surasi 27-oyati karimlarini ijara munosabatlariga tegishli ekanligi e'tirof etiladi.

Shuningdek, qarz munosabatlariga dalil sifatida Baqara surasi 282 - oyat keltiriladi. Ushbu oyat "Oyati mudoyana" ham deb nomlanadi. Unda qarz shartnomasini tuzish tartibi batafsil bayon etilgandir.

Qur'oni Karimda zakot haqida ham ko'plab oyatlar kelgan, ulardan ba'zilari Nur surasi 56-oyat, Tavba surasi 34, 60, 103-oyatlar, Baqara surasi 219, 267, 273 oyatlar, An'om surasi 141-oyat, A'lo surasi 14 va 15 oyatlar hamda Oli Imron surasi 92-oyatlar dalil sifatida keltiriladi. Zakot, vaqf va sadaqa ijtimoiy nomutanosibliklarni bartaraf etishda ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi jarayon hisoblanadi. Nur surasi 33-oyatda: "Allohning sizga bergan molidan ularga bering" deb ta'kidlangan.

Yuqoridagi munosabatlarning barchasida albatta mol-mulk masalasi ko'tariladi. Bunda insonlar Allohning bu dunyodagi vakili sifatida ko'riladi, ya'ni U bergan vakolat asosida Uning topshiriqlarini bajaradilar: "U sizlarni yer yuzida xalifalar qilgan va O'zi bergan narsalarda sizni sinash uchun ba'zingizning darajasini ba'zingizdan ustun qilgan zotdir..." (An'om, 165). "Mulk" so'zi va undan hosil bo'ladigan so'zlar Qur'oni karimda ko'p takrorlangan. Misol uchun "Fotiha" surasining 4-oyatida: "...jazo (va mukofot) kunining (ya'ni qiyomat

138 Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri // A.Mansur tarjimasi. – T. : TIU, 2004. – B. 388.

139 Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri // A.Mansur tarjimasi. – T. : TIU, 2004. – B. 388.

kuning) egasidir” deyilgan. Shuningdek, “G’ofir” surasining 16-oyatida: “Bugun podshohdagi (mulk) kimnikidir?” (deb so’rab, O’zi aytur:) “Vohid (yagona) va Qahhor (g’olib bo’lmish) Allohnidir” deyilgan. Qur’ondagi Baqara surasi 29-oyatida xususiy mulkchilikni joizligiga dalolat qiladi. **“U sizlar uchun yer yuzidagi barcha narsani yaratgan Zot. So’ngra osmonga yuzlandi va ularni yettita qilib to’g’riladi. Va U har bir narsani biluvchi Zotdir.”**

Demak, iqtisodiy masalalarning ko’pgina jihati Qur’oni Karimda yoritilgandir. Umumiy holatda, oyatlar bu yo’nalishdagi masalalarning turli jihatlarini o’zida aks ettiradi.

Islom iqtisodiy tafakkurida iqtisodiy masalar turli musulmon ulamolari tomonidan ko’rib chiqildi. Islom iqtisodiyotini quyidagi mezonlar bo’yicha tahlil qilish keng tarqalgan. Birinchidan, Qur’oni karimda keltirilgan ba’zi iqtisodiy masalalar, jumladan, sudxo’rlikning man etilishi va kishilarning farovon yashashi uchun iqtisodiy faoliyat bilan shug’ullanishining qo’llab-quvvatlanishi mufassirlar tomonidan muhokama qilinib izohlari keltirilgan. Ikkinchidan, ayrim iqtisodiy masalalar fiqhiy nuqtai nazardan o’rganib chiqilgan. Uchinchidan, iqtisodiy masalalarning islom ahloqiy tizimini rivojlantirishdagi ahamiyati o’rganib chiqilgan. To’rtinchidan, islom iqtisodiga oid ba’zi asarlar ulamolar tomonidan o’z davrining ehtiyojlaridan kelib chiqib yozilgan. Beshinchidan, ayrim islom olimlari va faylasuflari tomonidan islomiy iqtisodiy munosabatlar xolis tahlil qilingan. Bu toifaga Imom G’azzoliy, Ibn Xaldun kabi olimlarni kiritish mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan quyidagicha xulosa qilish mumkin: a) ilk o’rta asrlarga kelib islom madaniyati va ilm-fani o’zining eng yuqori ch o’qqisiga ko’tarildi va dunyo ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa q o’shgan holda insoniyat tamaddunining keyingi bosqichlari uchun muhim ahamiyat kasb etgan; b) Islom shariati qoidalariga tayangan musulmon olimlari tomonidan o’z davrlari uchun dolzarb ahamiyatga ega bo’lgan bir qator iqtisodiy masalarni tadqiq etilishi islomiy iqtisodiy ta’limotining rivojlanishiga katta ta’sir ko’rsatgan.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotini, xususan, jahon iqtisodiy barqaror rivojlanish jarayonlarini kuzatar ekanmiz, islom huquqi qoidalariga asoslangan moliyaviy munosabatlarni ham e’tibordan chetda qoldirib bo’lmaydi. Islom iqtisodiyoti va moliyasi asoslari nafaqat musulmon mamlakatlardagi balki g’arbdagi ko’plab iqtisodiy va moliyaviy institutlarda, ta’lim muassasalarida olimlar tomonidan o’rganilib, tadqiqot obyektining ajralmas qismiga aylandi. So’nggi yillarda aytish joizki islom moliyasining kengayib borayotgan nufuzi turli kasb egalarining, jumladan, ekspertlar, moliyachilar, tadqiqotchilar va universitet professorlarining qiziqishi va faolligini oshirdi.

Globallashuv va transchegaraviy o'zaro ta'sirlar kuchaygani sari, islomiy moliya ko'pchilik musulmon bo'lmagan turli mamlakatlarda ham o'z yo'lini topdi. Bu islom tamoyillariga mos keladigan axloqiy va ijtimoiy mas'uliyatli moliyaviy yechimlarni izlayotgan shaxslar, korxonalar va hukumatlar tomonidan qiziqish uyg'ota boshladi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda islomiy moliyaning tarqalishi uning samaradorligi va hayotiy moliyaviy tizim sifatida qabul qilinishining ortib borayotgani islom moliyasining qanchalar ishonchli tizim ekanligiga dalolatdir. An'anaviy moliyaviy tizimlarga ega bo'lgan bunday mamlakatlar islomiy moliyani muqobil variant sifatida qabul qilayotgani uning turli iqtisodiy sharoitlarga moslashishi va jozibadorligini yana bir bor isbotlab berdi.

Aslida, haqiqiy manbalar – Qur'oni karim va Sunnat. Ijmo va qiyosning ham asl kelib chiqishi shu ikkalasiga borib taqaladi. Ijmo va qiyosning mustaqil manbalar sifatida zikr qilinishiga sabab ularga bog'liq bahslarning ko'pligidir. Zotan, ijmo yoki qiyos qiluvchi mujtahidlar hech bir hukmni o'zlaricha chiqarishmaydi, balki Kitob yoki Sunnatga suyangan bo'lishadi. Kitob bu Alloh taolo Muhammad (a.s)ga lafzi va ma'nosi bilan nozil qilgan Qur'oni karimdir. U mus'haflarga yozilgan, Muhammad (a.s) ishonchli tarzda naql qilingan. Sunnat bu – Rasululloh (a.s) joriy qilgan amallardir. So'z bilan aytib, o'zlari amalda ko'rsatib yoki birovlarining qilgan ishlarini tasdiqlab, taqrir qilib, joriy etgan barcha odatlardir. Ijmo bu – Muhammad (a.s)ning ummatlaridan iborat bir asr mujtahidlarining Kitob, Sunnat yoki qiyosga suyangan holda shar'iy amaliy hukmga ittifoq qilishlaridir. Qiyos bu – shar'iy hukmi bo'yicha Kitob, Sunnat va ijmoda nass kelmagan masalani bulardan birida hukmiga nass kelgan masalaga tenglashtirish, taqqoslab ko'rishdir. Qiyos hukmni yangidan paydo qilish emas, balki bor narsani izlab, topib, ko'rsatishdan iboratdir.

Hanafiy mazhabi ulamolari mazkur mazhab fiqhidagi kitoblarning darajalarini rivoyat quvvati, keltirilgan masalalar kuchi hamda muallifning ilmiy salohiyatiga ko'ra tasniflab berganlar. Ularni o'rganishning ikki xil usuli ishlab chiqilgan. Birinchisida Imomi A'zam Abu Hanifa shogirdlari va ularning shogirdlari bitgan asarlar, aniqrog'i, XII asrgacha yozilgan fiqhiy manbalar qamrab olinadi. Ular quyidagi "tabaqot al-masoil" deb ataluvchi uch martabaga bo'lib o'rganiladi.¹⁴⁰

Usul yoki "Zohir ar-rivoya" masalalari. Bu erda "usul" so'zi "usul al-fiqh" yoki "usul ad-din" ma'nosida emas, balki "hanafiylikning asl masalalari", "hanafiylikka asos solingan masalalar" degan ma'nodadir. "Zohir ar-rivoya" esa rivoyat qilingan masalaning darajasiga qarab belgilangan. U "hanafiylikda rivoyat

140 Burxoniddin Marg'inoniy. Hidoya. – Turkiya : Dor daqq . – J. 1. – B. 4.

etilgan masalalarning ravshani, eng aniqlari, ishonchlilari” ma’nosida tushunilishi mumkin. Shuning uchun uni manbalarda “zohiri mazhab” deb ham ataladi. Bunda Muhammad ibn al-Hasan ash-Shayboniyning mashhur oltita kitobi – “al-Mabsut”, “az-Ziyodot”, “al-Jome’ as-sag’ir”, “al-Jome’ al-kabir”, “as-Siyar as-sag’ir”, “as-Siyar al-kabir” da keltirilgan masalalar nazarda tutiladi.

Navodir¹⁴¹ yoki “Zohir ar-rivoya” dan boshqa masalalarda Muhammad ash-Shayboniyning oltita mashhur kitobidan tashqari asarlarida zikr qilingan rivoyatlar nazarda tutiladi. Ular yozilgan joyi yoki bag’ishlangan kimsaga ko’ra “al-Kaysoniyot”, “al-Jurjoniyot”, “ar-Raqqiyot”, “al-Horuniyot” deb nomlangan. Afsuski, mazkur fiqhiy manbalar o’rta asrlardayoq yo’q bo’lib ketgan va hozirgacha topilgan emas. Shuningdek, Abu Yusufning “al-Amoliy”, al-Hasan ibn Ziyodning “al-Mujarrad” kabi asarlari, Hishom, Muhammad ibn Rustam, Muallo ibn Mansur, Muhammad ibn Simo’a kabi faqihlarning muayyan masalalardagi ayrim rivoyatlari ham ushbu tabaqa tarkibiga kiritiladi.

Fatovo yoki navozil yohud voqeot masalalarida¹⁴² keyingi davrdagi mujtahidlar – Abu Yusuf, Muhammad va Abu Hanifaning boshqa shogirdlarining shogirdlari va ulardan keyingi faqihlar tomonidan biror bir voqea yoki hodisaga bildirgan fikrlari, chiqargan fatvolari nazarda tutiladi. Bular Abu Hanifaning shogirdlaridan rivoyat qilinmagan, balki uning shogirdlarining shogirdlari, asosan, IX asr hanafiy ulamolari – Abu Ismat al-Balxiy, Ibn Rustam, Muhammad ibn Simo’a, Abu Sulaymon al-Juzjoniy, Abu Hafs al-kabir al-Buxoriy kabi faqihlar tomonidan “Zohir rivoya” va “Navodir” da yo’q masalalarga chiqargan fatvolardir.

Fiqhiy fatvolar ilk bor to’plangan kitob Abu al-Lays as-Samarqandiyning “an-Navozil” nomli asaridir.¹⁴³ Shundan so’ng an-Notifiy va Sadr ash-shahid o’zlarining “al-Voqeot” nomli asarlarini yozgan. “Fatovoyi Qozixon”, “Xulosat al-fatovo” kabi kitoblarda ham Abu Hanifaning chevora shogirdlari tomonidan rivoyat qilingan masalalar jam qilingan.¹⁴⁴ Faqat ularda “Zohiri rivoyat” va “Navodir” hamda “Navozil” masalalari ajratilmasdan zikr qilingan. Raziyyuddin as-Saraxsiy o’zining “al-Muhit” kitobida ularni birin-ketin keltirgan¹⁴⁵.

“Tabaqot al-masoil” sifatida zikr etilgan fiqhiy manbalardan keyin ham XII-XIX asrlarda hanafiylik mazhabida qanchadan-qancha fiqhiy asarlar yaratilgani

141 Navodir - nodir masalalar ma’nosida bo’lib, noyob, kam uchraydigan hodisalarga uncha ishonchli bo’lmagan rivoyatlar orqali yetib kelgan fatvolar to’plamlariga nisbatan qo’llaniladi.

142 “Fatovo” qat’iy hukmlar ma’nosida bo’lib, muftiy chiqargan hukmlariga nisbatan ishlatiladi. “Navozil” va “Voqeot” esa boshga tushgan hodisalar va voqealar ma’nosida bo’lib, mualliflarning yangidan-yangi hodisa va voqealarga munosabati aks ettirilgan manbalar nazarda tutiladi.

143 Abu Lays Nasr ibn Muhammad ibn Ibrohim Samarqandiy. Fatava an Navazil. – Bayrut: Darul kutub al ilmiyyah, 1995.

144 Umar ibn Abdulaziz ibn Moza Sadr ash-Shahid. Al-Voqeot. – J. 3. – B. 11.

145 Muhammad ibn Muhammad al-Hanafiy as Saraxsiy. Al-muhit ar-Rozoviy fi Furu’ al-fiqh al-hanafiy. – J. 2. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyyah, 2021. – B. 232–235.

aniq. Ushbu davrlarda yozilgan fiqhiy manbalarni hanafiy ulamolari “e’tiborli” va “e’tiborsiz”¹⁴⁶ga bo’lib o’rganadilar. Fiqhiy manbalarni mana shu tarzda ikkiga bo’lish o’ta nisbiy bo’lgani bois bir qator bahslarga sabab bo’ladi. Shuning uchun mazkur ilmiy ish hanafiylikdagi “e’tiborsiz” fiqhiy manbalar masalasiga bag’ishlandi.

146 Mo’tabar va g’ayri mo’tabar